

## O'ZBEKISTON XALQI – VATANIMIZ FAXRI



– Akmal, kun bo'yи xonangdan chiqmay,  
biz ekkan gulga tikilib o'tiribsanmi?



– Ha, ustozimiz uyga vazifa bergan edi. Mashhur  
o'zbekistonliklar haqida ma'lumot topishim kerak.  
Men bir ajoyib biolog olima bilan gaplashdim.  
Bu olima kashf etgan foydali mikroblar o'simliklarning  
tez o'sishiga yordam berar ekan. Qoyilmisan, Madina?



*– Dilfuza opa, kashfiyotingiz qanchalik muhim?  
Aytib bering.*

– Men ekologik toza meva-sabzavotlar yetishtirish  
texnologiyasini ixtiro qildim. Ularning tarkibida zararli  
kimyoviy elementlar bo'lmaydi. Bunday meva-  
sabzavotlarni yegan bolalar sog'lom bo'ladi.

– *Bunday olamshumul kashfiyat qilish uchun nimalarni bilish kerak?*

– Hozirgi kunda ilm-fanga tegishli eng so'nggi ma'lumotlar Internetda ingliz tilida berib borilyapti. Shuning uchun har bir inson o'zining ona tilini mukammal bilib olgach, chet tillarni, ayniqsa, ingliz tilini yaxshilab o'rganishi kerak. Ingliz tilini yaxshi bilganim uchun kimyo sohasidagi eng yangi ma'lumotlarni o'rganib, shular yordamida ushbu texnologiyani kashf qildim.

– *Olima bo'lish uchun necha yil o'qigansiz?*

– Inson olim bo'lish uchun o'qimaydi. Avvalo, ilm olish farz bo'lgani uchun o'qish kerak. Keyin esa o'sha ilmlarni insonlarning foydasiga sarflash zarur. Har bir insonda ilmning qaysidir sohasiga qobiliyat bor. O'sha iste'dodni topib, uni ro'yobga chiqarish kerak.

– *Yirik ilmiy kashfiyotlar qanday qilinadi?*

– Inson bu dunyoni, borliqni o'rganishga qiziqsa, "Nima uchun?" degan savolga javob izlasa, ajoyib yangiliklarga duch keladi. Ilmda har bir ishga ijodiy yondashish kerak, shunda qandaydir kashfiyotlar, ixtiolar qilinadi.

– *Inson hayot yo'lini qanday tanlashi kerak?*

– Inson hayotda eng ko'p qaysi sohaga qiziqsa, ana shu soha uning bir umrlik ishi va kasbiga aylanishi kerak. Chunki hayotimizning asosiy qismi ishxonada o'tadi. Inson o'z kasbini sevs, hayoti mazmunli bo'ladi, oldiga qo'ygan maqsadlarga, orzulariga erishadi.

– *Nima uchun ilm-fanni tanlash kerak?*

– Bugun insoniyat global muammolarga duch keldi: pandemiya, iqtisodiy inqiroz, qashshoqlik, iqlim o'zgarishi, qurg'oqchilik va hokazo. Bu muammolarni hal qilishning yagona yo'lli – bu ilm-fan. Sayyoramizni asrab, unda farovon hayot kechirish, insoniyatni toza havo, toza suv, toza yegulik bilan ta'minlash uchun ilm-fan bilan shug'ullanish kerak. Buning uchun esa bolalikdan ilm olishga qattiq harakat qilish kerak.



**Egamberdiyeva Dilfuza Rustamovna,**  
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor,  
Butunjahon fanlar akademiyasi a'zosi.

1. Nega Akmal biologiya faniga qiziqib qoldi?
2. Suhbatda sizga eng yoqqan savol qaysi?
3. Dunyoga mashhur olim bo'lish uchun nima qilish kerak?





Ma'lumotlarni o'qib, guruhlarga bo'lingan holda muhokama qiling. Ular bo'yicha bir nechta savol tuzib, sinfdoshlaringizdan intervyu oling.

2021-yil 1-iyunda o'zbekistonlik Sergey Denisenko sayyoramizning eng baland nuqtasiga – 8849 metrlik Everest cho'qqisiga O'zbekiston bayrog'ini o'rnatdi. Qor-yomg'irli ob-havoda, qahraton sovuqda, nihoyatda qiyin sharoitlarda kechgan ekspeditsiya salkam ikki oy davom etdi.

Sergey Denisenkoga "O'zbekiston iftixori" unvoni berildi.





**Bahodir Yo'ldoshev** – o'zbek teatr va kino aktyori, mashhur teatr rejissori. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi. Turli bayram va yirik madaniy tadbirlar, jumladan, Mirzo Ulug'bekning 600 yilligi, Amir Temurning 660 yilligiga bag'ishlangan tantanalar, "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali kabi tadbirlarning sahnalashtiruvchi rejissori. Bahodir Yo'ldoshev ko'plab davlat mukofotlari bilan taqdirlangan.